



VIRTUAL HAQIQAT VA HAQIQIYLIK MUAMMOSI

Azamatova Dilnoza O'ktam qizi¹, Umarova Farida Saidikramovna²

1-son davolash fakulteti 110 "A" guruh talabasi¹

Falsafa fanlar nomzodi, dotsent²

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya: Ishda zamonaviy texnologiyalar, xususan virtual haqiqat (VR) fenomeni falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Haqiqat tushunchasining Platon, Aristotel, Dekart va Bodriyar kabi faylasuflar qarashlari asosida qayta ko'rib chiqilishi, virtual olamning inson ongiga va axloqiy qadriyatlariga ta'siri o'r ganiladi. Virtual haqiqatning texnologik, psixologik, ijtimoiy va axloqiy oqibatlari chuqur tahlil qilinib, Virtual hayot muhitida yashayotgan zamonaviy insonning real haqiqat bilan bog'liqligi savol ostiga olinadi.

Kalit so'zlar: Virtual haqiqat, haqiqiylik, virtual texnologiya, shaxsiy identifikatsiya, jamiyat, real haqiqat, falsafa, .

XXI asr texnologiyalarning jadal rivojlanishi davri bo'lib, inson hayotining turli sohalariga yangicha qarashlar va tajribalar olib keldi. Shular qatorida, "virtual haqiqat" tushunchasi falsafiy jihatdan muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Virtual haqiqat — bu sun'iy tarzda yaratilgan, lekin real tajriba kabi qabul qilinadigan muhit bo'lib, virtual haqiqat texnologiyalari yordamida inson ongiga ta'sir ko'rsatadi. U zamonaviy texnologiyalar — kompyuter grafikasi, simulyatsiya, VR qurilmalari orqali vujudga keladi. Ammo bu tushuncha bilan birga bir qator muhim falsafiy savollar tug'iladi: haqiqat nima? Virtual haqiqat asl haqiqatning o'rnini bosa oladimi? Biz sezayotgan dunyo haqiqiyimi yoki konstruksiya? Ushbu savollar inson ongingin imkoniyatlari va cheklavlari haqida o'ylashga majbur qiladi. Falsafa tarixida haqiqat tushunchasi har doim markaziy mavzulardan biri bo'lgan.



Aristotel haqiqatni obyektiv voqelik bilan bog‘lab, “haqiqat bu — bor narsani bor, yo‘q narsani yo‘q deb aytishdir,” degan. Yunon faylasufi Platon esa haqiqatni ideal shakllar dunyosi bilan bog‘lagan va sezgi orqali idrok etiladigan dunyoni soya deb hisoblagan. Uning “g‘or allegoriyasi” insonlar faqat soyalarni ko‘rib, asl haqiqatdan bexabar yashashini tasvirlaydi. Platon “g‘or allegoriyasi” orqali biz sezayotgan olam haqiqatning soya nusxasi ekanligini ta’kidlagan. Bugungi virtual haqiqat esa bu g‘oyani texnologik darajada ifodalab bermoqda. Keyinchalik René Descartes inson ongini haqiqatning markaziga qo‘yadi: “Men o‘ylayman, demak men mayjudman” — degan mashhur iborasi ongiy tajribani haqiqat mezoni sifatida ko‘rsatadi. Bu g‘oyalar virtual haqiqat bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Postmodernizm vakillari, xususan, Jan Bodriyar nazarida bugungi jamiyatda haqiqat va simulyakrum (sun‘iy haqiqiylik) o‘rtasidagi chegaralar yo‘qolgan. Jan Bodriyar bu borada chuqur tahlil beradi. Uning fikricha, zamonaviy jamiyat “simulyakrum” — ya’ni haqiqiylikning nusxasi ichida yashaydi. U “giperhaqiqat” degan tushunchani ilgari suradi — bu voqelikdan ko‘ra mukammalroq, lekin sun‘iy yaratilgan muhitdir. Masalan, virtual haqiqatdagi olam real olamdan go‘zallik, nazorat va qulaylik jihatidan ustun bo‘lishi mumkin. Natijada inson haqiqatdan emas, uning imitatsiyasidan rohatlana boshlaydi.

Zamonaviy virtual texnologiyalari insonni o‘zga dunyoga ko‘chirib, real dunyodagidek hissiyotlar uyg‘otadi. Biroq bu holat ongiy idrok bilan real borliq o‘rtasidagi farqni buzadi. Natijada, insonda haqiqiylik hissi susayib, virtual muhitga haddan tashqari bog‘lanish kuzatiladi. Bundan tashqari, virtual haqiqat jamiyatda ijtimoiy aloqalarning zaiflashishi, shaxsiy identifikatsiya muammolari, axloqiy me’yorlarning erib borishi kabi salbiy oqibatlarga ham olib kelmoqda. Shu bilan birga, virtual haqiqat tibbiyot va ta’lim sohalarida ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda.



Har bir holatning ijobiliy va salbiy tomonlari bo’lgani kabi virtual haqiqatning ham ijobiliy va salbiy tomonlar bor. Virtual haqiqat hozirda o‘yin sanoati, tibbiyat, arxitektura, harbiy mashg‘ulotlar va ta’lim sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Turli xil virtual o‘yinlarni yaratishda foydalanilib ajoyib najitalarga erishilmoqda. Virtual haqiqat o‘yinlarida siz jang maydonida yurgandek bo’lishingiz mumkin. Arxitekturada uylar yoki binolarning 3D tasvirini virtual texnologiyalardan foydalanib yaratilmoqda. Yoki tibbiyotda shifokor virtual texnologiyalar orqali yurak operatsiyasini mashq qilishi yoki boshqa amaliyotlarda bajarib ko’rishi mumkin. Shunday avzalliklarni yaratgan bilan bir qatorda muammolarini ham keltirib chiqarmoqda. Ijtimoiy aloqalarning zaiflashishiga, odamlarning haqiqiy muammolardan qochishiga, “Feyk” xotiralar va hissiyotlarning shakllanishiga, “haqiqat” hissining yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Bu esa axloqiy jihatdan inson shaxsining autenikligini — ya’ni o‘zligiga sodiqligini — savol ostiga qo‘yadi. Shu bois, virtual olam bilan real olam o‘rtasida sog‘lom muvozanatni saqlash zarur. Virtual haqiqat muhitida inson real hayotda qila olmaydigan ishlarni sinab ko‘rishi mumkin. Masalan: Zo‘ravonlik, jinoyat, etik cheklavlarni buzish holatlari. Axloqiy mas’uliyatning susayishi: “Bu real emas-ku”, degan qarash bilan javobgarlikdan chetlashish. Shu sababli, Virtual muloqotdan foydalanuvchilari orasida axloqiy tarbiya, mas’uliyat va o‘zini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Virtual texnologiyasidan foydalanish etik qoidalar bilan tartibga solinmasa, u insoniyat ma’naviyatiga tahdid solishi mumkin.

Virtual haqiqat va haqiqiylik muammozi bugungi kunda nafaqat texnologik, balki chuqr falsafiy masaladir. Inson ongingin imkoniyatlari, haqiqatga bo‘lgan ishonch va ongiy tajribaning tabiatи ushbu mavzuda doimo markaziy o‘rinni egallaydi. Falsafa bizni shunchaki texnologik yangiliklardan bahramand bo‘lish emas, balki ularning ma’nosini tushunish, hayotimizdagи rolini anglashga chorlaydi. Falsafiy antropologiya nuqtai nazaridan olganda, inson tajribasi, ongiy holati, hissiyotlari haqiqatni anglashning markazida turadi. Virtual haqiqat inson



ongiga real muhitda bo‘lgandek ta’sir o‘tkazadi: yurak urishi tezlashadi, qo‘rquv, quvonch, motivatsiya paydo bo‘ladi.

Bu holat shuni ko‘rsatadiki, ong real va virtual tajribalarni bir xil darajada qabul qilishi mumkin. Biroq bu — haqiqatni ong belgilaydi, degani emas. Chunki haqiqat faqat idrok bilan emas, mavjudlik bilan bog‘liqdir. Virtual haqiqat va haqiqiylik o‘rtasidagi chegara tobora noaniq bo‘lib bormoqda. Falsafa bizni texnologiyalarni shunchaki qulaylik emas, balki insonlik mohiyatini sinovdan o‘tkazuvchi omil sifatida tahlil qilishga undaydi. Haqiqiylik tushunchasini saqlab qolish, ong va axloqiy me’yorlar asosida texnologik olamda yashash muhim. Virtual haqiqat inson uchun vosita bo‘lishi kerak, maqsad emas.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Platon. Respublika (G‘or alegoriyasi) — qadimgi yunon falsafasida haqiqat va ko‘rinish haqidagi klassik manba.
2. Descartes, René. Meditations on First Philosophy — idrok va shubhaning ontologik asoslari.
3. Baudrillard, Jean. Simulacra and Simulation — zamonaviy jamiyatda haqiqatning o‘rnini egallagan “giperhaqiqat” tushunchasi.
4. Slater, M., & Sanchez-Vives, M. V. (2016). Enhancing Our Lives with Immersive Virtual Reality. *Frontiers in Robotics and AI*, 3, 74.

DOI: 10.3389/frobt.2016.00074

5. Heim, Michael. The Metaphysics of Virtual Reality. Oxford University Press, 1993. — VRning falsafiy asoslari.
6. Lanier, Jaron. Dawn of the New Everything: Encounters with Reality and Virtual Reality. Henry Holt and Co., 2017. — VR texnologiyalarining amaliy va falsafiy ko‘rinishlari.



7. Kalay, Yehuda E. Architecture's New Media: Principles, Theories, and Methods of Computer-Aided Design. MIT Press, 2004 — virtual muhitda fazoviy tafakkur.
8. Oxford Handbook of Virtuality. (Eds. Mark Grimshaw) Oxford University Press, 2014. — keng qamrovli ilmiy maqolalar to‘plami.
9. Qodirov, H. (2019). Zamonaviy axborot texnologiyalarining jamiyatga ta’siri. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
10. Fayzullayev, A. (2021). Falsafa asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti — mahalliy falsafiy manba.
11. Элмуротова Д.Б., Элмуратов Э.Б. Исследование и совершенствование техники и технологий по освоению скважин в сложных горно-геологических условиях на месторождениях Республики Узбекистан // Лучшие интеллектуальные исследования, Ч-13, Т.5, Январь-2024, С.11-23, Россия.
<http://web-journal.ru/index.php/journal/issue/view/89>
12. Elmurotova D.B., Sayfullayeva D.I., Isroilova Sh.A. Terms of medical information system, World Bulletin of Public Health (WBPH), V.34, May, P.91-92, 2024 ISSN: 2749-3644, Berlin. <https://www.scholarexpress.net>
13. Elmurotova D.B., Majlimov F.B., Zuparov I.B., Kayumova K.S., Xudoyberdiyev B.A. A modern approach to hand hygiene in medicine // European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA), V.5 N.05, May 2024 ISSN: 2660-5589, P.51-53, Spain. <https://www.scholarzest.com>
14. Elmurotova D., Arzikulov F., Egamov S., Isroilov U. Organization of direct memory access // Intent Research Scientific Journal-(IRSJ), ISSN (E): 2980-4612, V.3, Is.10, October – 2024, P. 31-38., Philippines,
<https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/345>
15. Elmurotova D., Arzikulov F., Izzatullayev I., Olimov A., Abdurahmonov J. The role of remote diagnostics in medicine // World Bulletin of Public Health



(WBPH), V.39, October 2024, ISSN:2749-3644, P.102-105. Germany,
<https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/4664>

16. Elmurotova D., Fayziyeva N.A., Urmanbekova D.S., Bozorov E.H. Implementation of the method of teaching x-ray therapy in higher educational institutions // **Web of Teachers: Inderscience Research**, V.2, Issue 10, October-2024, ISSN (E):2938-379X, P.18-23. Spain.

<https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/1868>

17. Elmurotova D.B., Esanov Sh.Sh., Abduraxmonov S.A., Ulug'berdiyev A.Sh., Umarov J.S. Medical device reliability and measuring instrument specifications // Eurasian Journal of Engineering and Technology, EJET, V.34, October-7, 2024, ISSN: (E) 2795-7640, P.10-13, Belgium.

<https://geniusjournals.org/index.php/ejet>

18. Shodiev A.A., Mussaeva M.A., Elmurotova D.B. Magnetic resistance and mobility of carriers of HTSC – YBCO tapes irradiated with 5 MeV electrons // Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics, EJPCM, V.35, October-26, 2024, ISSN: 2795-7667, P.25-33, Belgium.

<https://geniusjournals.org/index.php/ejpcm/article/view/6393>

19. Elmurotova D.B., Fayziyeva N.A., Odilova N.J. Properties of electron and neutron therapy // Web of Medicine: Journal of medicine, practice and nursing, V.2, Issue 10, October-2024, ISSN (E): 2938-3765, P.137-141, Spain.

20. Elmurotova D.B., Yoqubboyeva E.Z., Orifqulova M.F., Imanova L.N. Application of computer technologies in medicine // Western European Journal of Medicine and Medical Science, V.2, Issue 11, ISSN (E): 2942-1918, November-2024, P.1-12. Germany. <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/3>